

1-BO'LIM. VETERINARIYA SOHASIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR YECHIMI

VETERINARIYA ILM-FANINING RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION ISHLANMALARNING O'RNI

Elmuradov B.A.,

v.f.d.professor, Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti direktori

Ruzimurodov M.A.

Professor, Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy ishlar bo'yicha director o'rinbosari

Annotatsiya: Maqolada veterinariya ilmiy tadqiqot institutida oxirgi besh yilda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari, olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy innovatsion ishlanmalar, tavsiyalar, patentlar, qo'llanma va yo'riqnomalarni chop etilganligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ilm-fanni rivojlantirish, veterinariya biopreparatlar, biotexnologiya, vaksina, dori-darmonlar, infeksiya va boshq.

Аннотация: В статье описаны результаты научных исследований, сотрудников НИИ ветеринарии за последние пять лет, публикации рекомендаций, патенты, инновационных технологии и другие разработки ученых.

Ключевые слова: развитие науки, ветеринарных биопрепараты, биотехнологии, вакцины, инфекция и др.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5696-sonli farmoni, hamda "O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4254-sonli qarori xamda 2022 yil 31 martdagi PQ-187 sonli qarorlarida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash borasida ishlar amalga oshirilmoqda.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni bilan tasdiqlangan "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" hamda "Ilm-fan sohasi va ilmiy-tadqiqot ishlarini 2021–2030 yillarda moliyalashtirish hajmini kengaytirish va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalashning maqsadli parametrlariga erishish buyicha kompleks chora-tadbirlar rejasi"da belgilangan topshiriq va chora-tadbirlarni amalga oshirilishini ta'minlash, institutning ilmiy-innovatsion faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

- Ilmiy tadqiqotlar natijasida Respublikamizdagi hayvonlarning tuberkulyoz kasalligiga qarshi kurashish bo'yicha uslubiy tavsiyanoma tasdiqlandi va amaliyotga joriy etildi.

- Hayvonlarning brutsellyoz, tuberkulyoz, leptospiroz, parranda grippi, Nyukasla, bug'ozlikni aniqlovchi va boshqa turdagi jami 12 ta ekspress-testlarning meyoriy hujjatlar ishlab chiqildi va davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

- A-VQ-2021-486 "Qoramollar qon-parazitar teylerioziga qarshi vaksina yaratish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida eksperimental vaksinaning asosiy ko'rsatkichlariga ko'ra emlangan 180 bosh qoramollarda reaktogenlik xususiyati yo'qligi va parazitar reaksiyaning namoyon bo'lmaganligi aniqlandi. Vaksinani immunogenlik xususiyatini 10 bosh qoramollarda o'rganilganda, davomiyligi 7 oygacha bo'lgan muddatni tashkil qilishi aniqlandi.

- “Qishloq xo‘jalik hayvonlarining parazitlar va transmissiv kasalliklar tarqatuvchilari (Artropoda)ga qarshi mahalliy “Bioinsektitsid” preparatini yaratish va joriy etish” nomli yangi innovatsion loyiha buyicha bugungi kunda *Bacillus thuringiensis* var.*thuringiensis* VITI M1 shtammi ustidan seleksiya ishlari yakunlandi. Laboratoriya sharoitida “Bioinsektitsid” preparatini tajriba seriyasi ishlab chiqarildi dastlabki namuna nusxasi yaratildi va rejaga binoan dala sharoitida sinovdan o‘tkazildi. O‘zbekistonga Rossiyaning bioinsektitsidlari ishlab chiqarilayotgan texnologiyasi transfer qilish maqsadida hamkorlik shartnomasi tuzildi xamda meyoriy hujjatlar ishlab chiqildi va va davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi.

- “Qishloq xo‘jalik hayvonlari tuberkulyozini diagnostika qilishda PPD-tuberkulin preparatini ishlab chiqarish va tijoratlashtirish loyihasi”. buyicha zamonaviy diagnostik vositasi laboratoriya sharoitida tajriba sinovlaridan dengiz cho‘chqalarda, quyonlar, hamda qoramollarda bezararliligi, sezuvchanligi, aktivligi, sinab ko‘rildi. Tuberkulyoz kasalligiga qarshi mahalliy shtammlardan PPD-tuberkulin diagnostikumi eksperimental namunalarini tayyorlandi va meyoriy hujjatlar ishlab chiqildi va va davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi.

Respublikamizdagi mavjud barcha turdagi hayvonlarning yuqumli, invazion va yuqumsiz kasalliklariga qarshi kurashishning ilmiy asoslangan **6 ta** meyoriy hujjat ishlab chiqildi bular 2 ta tavsiyanomalar, 2 ta qo‘llanmalar, 2 ta yo‘riqnomalar ishlab chiqildi.

Chorva hayvonlarining, parandalarining virusli va bakterial kasalliklarini aniqlovchi, oziq-ovqat xavfsizligini taminlaydigan tezkor aniqlovchi **jami 12 ta** zamonaviy IFT, ekspres-test diagnostikumlar, reagentlar (YUNIGEN MCHJ bilan) hamkorlikda davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi.

- Biotexnologiyalar asosida chorva hayvonlarining yuqumli kasalliklarini oldini oluvchi zamonaviy vaksinalar, diagnostikumlar, davolovchi zardoblar tayyorlash maqsadida laboratoriyalarda mavjud etalon, ishlab chiqarish, referent (nazorat) muzey shtammlarni liofilizatsiya qilishning optimal parametrlari ishlab chiqildi.

- Institutda yaratilgan pasterellyoz, kolibakterioz salmonellyoz, streptokokkoz kasalliklarini davolovchi polivalent giperimmun qon zardobi ishlab chiqarildi va sinov tadqiqotlaridan o‘tkazildi.

Institut olimlari tomonidan oxirgi besh yilda **30 dan ortiq** ishlanmalar yaratilib, **16 ta patent** olindi, **10 dan ortiq monografiya, 5 ta darslik, 20 dan ortiq tavsiyanomalar, 25 ta qo‘llanma** va **31 ta yo‘riqnoma**, shuningdek, 400 dan ortiq **ilmiy-ommabop maqolalar** chop etildi. Doktorant-tadqiqotchilarni tayyorlash va ustoz-shogird maktabini yaratish sohasida **12 ta fan doktori 15 dan ortik falsafa doktori** dissertatsiya ishlari yoqlandi (jadval №1).

Sungi yillarda institut olimlari tomonidan **16 turdagi** ishlanmalar (vaksina, diagnostikum va boshq.) yaryatilib, ularni ishlab chiqarishda joriy etish xisobiga 2020-2024 yillar davomida **500 dan ortiq xo‘jaliklar** bilan jami **4,2 mlrd so‘mlik** shartnomalar imzolandi hamda respublika fermer xo‘jaliklarida mazkur kasalliklarning oldi olinib ilmiy amaliy tavsiyalar berib kelinmoqda. Chorva hayvonlarining yuqumli, yuqumsiz va parazitlar kasalliklariga qarshi maxalliy biopreparatlar, **diagnostikumlar** yaratildi; – Asalari, quyon va baliq kasalliklariga tashxis qo‘yish, davolash va oldini olish buyicha **tavsiyalar ishlab chiqildi** va amaliyotga joriy etildi;

– O‘ta xafli kasalliklar (quturish, brutsellyoz, tuberkulyoz, kuydirgi, oqsil, qorason) kasalliklarining oldini olish, tashxis qo‘yish borasida dunyo veterinariya faniining yangi uslublari o‘rganildi.

Xulosa va takliflar: Institutda mavjud bo‘lgan ilmiy salohiyat va resurslardan oqilona foydalanish natijasida qishloq xo‘jalik hayvonlari va parrandalarining yuqumli, yuqumsiz va parazitlar kasalliklariga tashxis qo‘yish va oldini olishning zamonaviy uslublari yaratildi. Chorva hayvonlari maxsulotlari va veterinariya preparatlarini nazorat qilish, standartlashtirish xamda sertifikatsiyalash uslublari ishlab chiqildi.

Jadval № 1.

Institutda 2020–2024 yillarda chop etilgan ilmiy ishlar

Yillar	Yaratilgan veterinariya preparatlari	Patentlar	Monografiyalar	Tavsiyalar	Uslubiy qo'llanmalar	Yo'riqnomalar	Ilmiy maqolalar		
							Xorijiy	MDH da	Respublikada
2020	8	3	3	4	4	8	3	2	47
2021	6	4	3	5	5	6	2	3	65
2022	5	3	2	4	5	4	4	7	71
2023	6	3	4	4	8	5	8	5	96
2024	6	3	2	5	4	8	5	8	114

Veterinariya sohasida molekulyar-biologik (gen injeneriyasi), virusologik (hujayralar kulturasi), immunologik va genetik uslublarni o'rganish evaziga yuqori samaradorlikka ega ekologik toza veterinariya maxsulotlarini yaratish uslublari o'rganildi. Respublikada epizootik barqarorlikni saqlash, yangi turdagi kasalliklarni o'rganish, chet davlatlardan xavfli kasalliklarning kirib kelishini oldini olish chora-tadbirlari ishlab chiqildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Элмуродов, Б., Муминов, Г., & Набиева, Н. (2024). Распространение инфекционных заболеваний среди скота и меры профилактики. *in Library*, 2(2), 155-163.
2. Элмуродов, Б., & Наврузов, Н. (2024). Влияние формалиновой вакцины Гоа против колибактериоза и сальмонеллеза телят, ягнят и поросят на организм телят. *in Library*, 2(2), 73-86.
3. Элмуродов, Б. (2024). Инсектицидное действие препарата Альфа-Шакти против мух и вредителей. *in Library*, 1(1), 250-256.
4. Элмуродов, Б. (2024). Патоморфологические изменения у цыплят, зараженных сальмонеллой пуллором галлиналиум. *in Library*, 2(2).
5. Элмуродов, Б., Наврузов, Н., & Киямова, З. (2024). Патоморфологические изменения у цыплят, зараженных *Salmonella pullorum* Gallinarium. *in Library*, 1(1), 141-151.
6. Элмуродов, Б., & Набиева, Н. (2024). Эффективность антибиотиков при лечении пастерелллёза кроликов. *in Library*, 1(1), 134-140.
7. Элмуродов, Б., & Абдураимова, Г. (2024). Профилактика и лечение отравления овец гелиотропом. *in Library*, 1(1), 243-249.
8. Элмуродов, Б., & Киямова, З. (2024). Патоморфологическая дифференциальная диагностика пуллороза и стрептококковых заболеваний птицы. *in Library*, 1(1), 79-84.
9. Elmurodov, B. A. (2024). PATHOPHOLOGICAL CHANGES IN CHICKS INFECTED WITH *SALMONELLA PULLORUM* GALLINARIUM. *Ustozlar uchun*, 57(2), 398-413.
10. Набиева, Н., & Элмуродов, Б. А. (2024). ЧОРВАЧИЛИКДА ИНФЕКЦИОН КАСАЛЛИКЛАРИНИНГ ТАРҚАЛИШИ ВА ОЛДИНИ ОЛИШ ЧОРАЛАРИ. *World scientific research journal*, 26(2), 155-163.
11. Элмуродов, Б., Набиева, Н., & Наврузов, Н. (2023). Коммерческие вакцины для профилактики пастерелллёза кроликов и других животных. *in Library*, 4(4), 322-324.
12. Элмуродов, Б., & Абдураимова, Г. (2023). Виды гелиотропных растений и отравление (гелиотропотоксикоз). *in Library*, 3(3), 30-31.

13. Элмуродов, Б., & Султанова, И. (2023). Гематологические показатели, патологоанатомические изменения и дифференциальный диагноз при микст-инфекции колибактериозом и сальмонеллезом у кроликов. *in Library*, 3(3), 6-7.
14. Элмуродов, Б., & Султанова, И. (2023). Патоморфология колибактериоза и сальмонеллеза ягнят, меры профилактики и лечения. *in Library*, 3(3), 5-7.
15. Наврузов, Н., & Элмуродов, Б. (2023). Роль сукцината хитозана при эшерихиозе телят и влияние на иммунную систему. *in Library*, 1(2), 122-126.
16. Наврузов, Н., & Элмуродов, Б. (2023). Патоморфология, профилактика и меры лечения колибактериоза и сальмонеллеза у ягненок. *in Library*, 1(2), 5-9.
17. Рахимов, М., Давидов, О., Элмуродов, Б., & Уракова, Р. (2022). Распространение болезни тропилелапиоза пчел в Узбекистане и меры борьбы с ним. *in Library*, 22(4), 19-21.
18. Элмуродов, Б., & Исмоилов, У. (2022). Колибактериоз и сальмонеллез молодняка животных прибрежных территорий. *in Library*, 22(3), 233-235.
19. Элмуродов, Б. (2022). Перспективы ветеринарной науки и важные задачи развития отрасли. *in Library*, 22(3), 9-12.
20. Элмуродов, Б. (2022). Инновационные вакцины для профилактики пастереллеза кроликов и других животных. *in Library*, 22(1), 282-284.
21. Элмуродов, Б. (2022). Инновационные вакцины для профилактики пастереллеза кроликов и других животных. *in Library*, 22(1), 282-284.
22. Элмуродов, Б., Давидов, О., Уракова, Р., & Рахимов, М. (2022). Распространение и меры борьбы с пчелиным тропилапсозом в Узбекистане. *in Library*, 22(4), 19-21.
23. Элмуродов, Б., & Киямова, З. (2022). Сосуществование респираторного микоплазмоза и сальмонеллеза домашней птицы. *in Library*, 22(4), 10-10.
24. Элмуродов, Б. (2022). Научные инновационные разработки, созданные в области ветеринарии. *in Library*, 22(3), 6-7.
25. Элмуродов, Б., Муродов, Х., & Киямова, З. (2021). Патоморфологическая диагностика ларинготрахеита птиц. *in Library*, 21(4).
26. Элмуродов, Б., & Собиров, И. (2020). Меры профилактики инфекционной плевропневмонии коз. *in Library*, 20(4), 344-348.
27. Элмуродов, Б. (2019). Профилактическая эффективность формальной вакцины ГОА против пастереллеза, сальмонеллеза и колибактериоза сельскохозяйственных животных. *in Library*, 19(2), 312-315.
28. Элмуродов, Б., Набиева, Н., & Фафоров, Ф. (2019). Меры профилактики пастереллеза кроликов. *in Library*, 19(2), 303-305.
29. Элмуродов, Б., & Алламуродова, М. (2019). Диплококкоз у ягнят. *in Library*, 19(3), 18-20.
30. Davlatov, R. B., & Khushnazarov, A. K. (2024). Diagnosis and chemoprophylaxis of rabbit eumeriosis. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 480, p. 03020). EDP Sciences.
31. Газнакулов, Т. К., Орипов, А. О., Сафаров, А. А., Хушназаров, А. Х., Давлатов, Р. Б., Абдухакимов, Ш., & Мавланов, С. (2023). ХС Салимов, МК Бутаев, ЗЭ Рузиев,– Биохавфсизлик.
32. Джураев, О., & Хушназаров, А. (2023). Порядок и методы патологического обследования сельскохозяйственных животных. *in Library*, 3(3), 21-25.
33. Хушназаров, А., Абдиев, Ф., & Акрамов, К. (2019). Распространение тениаринхоза на побережье Амударьи. *in Library*, 19(3), 25-26.
34. Хушназаров, А. Х., & Акрамов, К. Ш. ТЕНИАРИНХОЗНИНГ АМУДАРЁ СОҲИЛЛАРНДА ТАРҚАЛИШИ.
35. Газнакулов, Т., & Хушназаров, А. (2023). Литературный обзор по истории развития эпизоотологии и изучения бешенства. *in Library*, 1(2), 7-9.